

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA JAHON SAVDO TASHKILOTINING O'RN

Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Nomozova Qumri Isoevna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.08.2025

Revised: 30.08.2025

Accepted: 31.08.2025

KALIT SO'ZLAR:

*tashqi savdo, xalqaro
iqtisodiy munosabatlar,
erkin savdo,
proteksionizm, nisbiy
ustunlik, xalqaro savdo
bloklari, GATT, Jahon
savdo tashkiloti (JST).*

Maqolada xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng rivojlangan shakli sifatida tashqi savdoning ahamiyati va roli yoritilgan. Jahon iqtisodiyotida tashqi savdoning ulushi 75–80 foizni tashkil etishi qayd etilib, uning mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rnini ta'kidlangan. Adam Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi, D. Rikardoning nisbiy ustunlik konsepsiyasi, J.S. Millning xalqaro narx nazariyasi, Xeksher-Olin modeli, V. Leontev paradoksi kabi nazariy qarashlar asosida xalqaro savdoning rivojlanish bosqichlari ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, xalqaro savdo erkinlashtirilishi, proteksionizm siyosati va savdo-iqtisodiy bloklarning shakllanishi jarayonlari o'rganilgan. Jahon savdosida Yevropa Ittifoqi, NAFTA, ATES, MERCOSUR kabi yirik mintaqaviy integratsion tuzilmalar faoliyati ko'rib chiqilgan. GATT va uning o'rnini egallagan Jahon savdo tashkilotining (JST) savdoni tartibga solishdagi huquqiy va iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilinib, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonlari ham alohida yoritilgan..

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning an'anaviy va eng rivojlangan ko'rinishlaridan biri tashqi savdo hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar umumiy hajmining 75-80%i tashqi savdoning ulushiga to'g'ri keladi.

Dunyoda mavjud bo'lgan har qanday mamlakat uchun tashqi savdoning roli kattadir. Iqtisodchi olim J.Saksning fikricha - dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy muvaffaqiyati tashqi savdoda ko'rinadi. Hozirgi kunga qadar hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajralgan holda sog'lom iqtisodiyotni hosil qila olgani yo'q.

Xalqaro savdoda xalqaro mehnat taqsimoti asosida paydo bo'ladigan turli davlatlarni tovar ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi aloqalarning bir shakli bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy bog'liqlikni namoyon qiladi.

Mamlakatlar iqtisodiyotida ITI ta'siri ostida ro'y berayotgan tuzilmaviy o'zgarishlar, (sanoat ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi) milliy xo'jaliklarning o'zaro hamkorligini kuchaytirmoqda. Bu esa xalqaro savdoni faollashuviga imkon yaratmoqda. Xalqaro savdo ishlab chiqarishga nisbatan tezroq o'smoqda. Tashqi savdo aylanmasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, jahonda ishlab chiqarish 10%ga ko'paygan xolda jahon savdosi 16%ga o'smoqda.

Tashqi savdo deganda bir mamlakatning boshqa bir mamlakat bilan haq to'lanadigan olib kirishi, ya'ni, import va haq to'lanadigan olib chiqish, ya'ni, eksportdan iborat savdosi nazarda tutiladi. Dunyodagi barcha mamlakatlarning hak to'lanadigan tovar aylanmasi yig'indisi xalqaro savdo deb ataladi. Xalqaro savdo tushunchasi torroq ma'noda ham ishlatilishi mumkin. Masalan, sanoati rivojlangan davlatlarda tovar aylanmasining yig'indisi, rivojlanayotgan davlatlarda tovar aylanmasining yig'indisi va x.k.

Jahonning barcha davlatlari oldida tashqi savdo bo'yicha milliy siyosat muammosi yotib, 200 yillar mobaynida bu mavzuda qizg'in tortishuvlar bo'lib turibdi.

Erkin savdo yoki proteksionizm siyosatini tanlash yoki uni qanday bo'lsa shu holda saqlash oldingi asrlarning xarakteri edi. Bizning davrimizda bu ikki yo'nalish o'zaro bog'liqdir. Ammo ko'p hollarda uni bu qarama-qarshi birlik erkin savdo tamoyilining bosh vazifasini bajaradi.

Jahon iqtisodiyotida erkin savdo siyosatiga birinchi bo'lib Adam Smit o'z ta'rifini bergan edi. Adam Smit - ayirboshlash har bir mamlakat uchun foydali bo'lib, har bir mamlakat bunda mutloq ustunlikka ega bo'lishini ta'kidlagan edi. Adam Smitning tahlillari klassik nazariyaning asosi bo'lgan va erkin savdo siyosatining har qanday shakli uchun asos bo'lib kelgan.

David Rikardo - Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi (1817 yil) nomli asarida

boshi berk ko'chadan klassik nazariyani keltirib chiqardi. U xalqaro ixtisoslashuv mezonlarini ajratgan holda, davlatlar uchun qanday holatlarda davlatlararo ayirboshlash manfaatli ekanini ko'rsatib berdi. Har bir davlat uchun ustunlik qilgan yoki kuchsizligi nisbatan kamroq bo'lgan sohaga ixtisoslashish manfaat keltiradi degan fikrni berdi. Uning qarashlar konsepsiyasi taqqoslanishi nazariyasi yoki prinsipida o'z aksini topdi.

D. Rikardo o'z ta'limotida xalqaro ayirboshlash barcha davlatlar uchun mumkin va manfaatligini, ayirboshlash barcha uchun foydali bo'lgan narh zonalarini aniqlab bergan bo'lsa, Djon Styuart Mill o'zining - Siyosiy iqtisod asoslari (1848 yil) nomli asarida qanday narxda ayirboshlashni amalga oshirilishini foydali ekanligini ko'rsatgan edi. Styuart Millning ta'limoti bo'yicha ayirboshlash narhi talab va taklif qonuniga ko'ra, har bir davlatning yalpi eksport miqdori yalpi import miqdorini qoplaydigan daraja bilan belgilanadi. Djon Styuart Millning muhim xizmatlaridan biri uning xalqaro narh qonuni yoki -xalqaro narh nazariyasidir. Xalqaro narh qonunida ta'kidlanishicha, shunday narh mavjudki u davlatlar orasidagi tovar ayirboshlashni optimallashtiradi. Bu bozor narhi bo'lib, u talab va taklifga bog'liqdir.

Klassik siyosiy iqtisodchilarning nazariyasini rivojlantirib Gotfrid Xaberler o'z qarashlar konsepsiyasini nafaqat mehnatga, balki ishlab chiqarishning barcha omillariga e'tiborni qaratgan edi.

Xalqaro savdo oqimini nima bilan aniqlanishi va uning tarkibini Eli Xeksher va Bertil Olinlar o'zlarining zamonaviy qarashlarida aks ettirdilar. Ular nisbiy ustunlik tushunasini izohlab u yoki bu davlatning ma'lum bir tovarlarga ixtisoslashishini ularning ishlab chiqarish omillariga egalik darajasiga bog'liqdir deyilgan edi. E.Xeksher va B.Olin - narxlarning ishlab chiqarish omillariga tenglashtirish nazariyasini ilgari surdilar.

1948 yilda Amerikalik iqtisodchilar P.Samuelson va V.Stolper o'z nazariyalarini kiritib Xeksher-Olin ta'limotining isbotini yanada mukammallashtirib, ishlab chiqarish omillaridan biri, texnika asosan bir mukammal raqobat va tovarlarning to'la harakatchanligi mavjud bo'lganda xalqaro ayirboshlash ishlab chiqarish omillarining davlatlar orasidagi narxini tenglashtiradi degan edi.

Tashqi savdo nazariyasi Amerika iqtisodchisi V. Leontevning - Leontev paradoksi nomli ishida yanada rivojlantirildi. Paradoks shundaki V.Leontev Xeksher-Olin ta'limotidan foydalanib, Amerika iqtisodiy urushdan keyingi davrda kapitalga nisbatan mehnatni ko'proq talab qiladigan ishlab chiqarishga ixtisoslashganligini ko'rsatib bergan edi. Boshqacha aytganda, AQSH eksporti importiga nisbatan ko'proq mehnattalab va kamrok kapitaltalabdir. Ushbu xulosa AQSH iqtisodiyotidagi oldingi barcha fikrlarga tamoman

teskaridir. Umumiy fikrga ko'ra, AQSH iqtisodiyotida doimo kapital ortiqcha edi va Xeksher-Olin ta'limotiga ko'ra AQSH kapitaltalab tovarlarni import emas, eksport qilishlari kerak edi.

Keyingi yillarda V.Leontev ixtirosi keng rezonans oldi. Turli davlatlarning ko'plab iqtisodchi olimlari - Leontev paradoksini tushuntirib bu mavzuda tortishdilar. Natijada nisbiy ustunlik nazariyasi yanada rivojlandi. Ushbu nazariya texnik rivojlanish va uni taqsimlanishining teng emasligi, mablag'larni firmadan tashqarida iqtisod qilish, davlatlardagi ish xaqining farqi va boshqa tushunchalar ham kiritildi.

Xalqaro savdodagi sodir bo'lyotgan jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz erkinlashtirish uning eng asosiy yo'nalishi ekanligini ta'kidlab o'tish lozimdir. Boj to'lovlarida sezilarli kamaytirishlar yuz berdi, ko'pgina cheklashlar, kvotalar va boshqa to'siqlar yo'q qilindi. Biroq xalqaro savdoda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularning eng asosiysi – proteksionizm siyosatining ko'p narsalarda, jumladan iqtisodiy guruhlar va mamlakatlarning savdo-iqtisodiy bloklari mikiyosida rivoj topishidir.

Savdo-iqtisodiy bloklarning paydo bo'lishidagi birinchi qadam bu erkin savdo xududlarining yaratilishidir. Xalqaro bankning axborotlariga qaraganda 90-yillarning o'rtalarida dunyo savdosining 42-45% xuddi shunday xududlarda olib borilgan. Jahonda eng mashhur erkin savdo xududlar bu Yevropaning erkin savdo assotsiatsiyasi (YEAST), Yevropa Ittifoqi (YEI), Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi (NAFTA), Osiyo-Tinchokeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (ATES) va boshqalardir.

Jahon xo'jaligi va XIMda xalqaro xududiy savdo bloklarning eng yirik 9 sining tarkibi quyidagilar bo'lgan:

1 Yevropa Ittifoqi (YEI) - Avstriya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Irlandiya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Finlyandiya, Shvetsiya, Daniya, Belgiya, Lyuksemburg, Niderlandlar, Gretsiya. Bundan tashqari ushbu ittifoqa 2004 yilning birinchi mayidan Polsha, Chexiya, Estoniya, Litva, Latviya, Sloveniya, Slovakiya, Vengriya, Kipr, Malta kabi davlatlar a'zo bo'lib kirishdi.

2 Shimoliy Amerika erkin savdo haqidagi kelishuvi (NAFTA) - AQSH, Kanada, Meksika.

3 Yevropa Erkin Savdo Assotsiatsiyasi (YEAST) - Islandiya, Norvegiya, Shveysariya, Lixtenshteyn.

4 Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (ATES) Avstraliya, Bruney, Malayziya, Singapur, Tailand, Yangi Zelandiya, Papua-Yangi Gvineya, Indoneziya, Fillipin, Tayvan,

Gonkong, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Kanada, AQSH, Meksika, Chili, Rossiya, Peru, Ekvador.

5 -Merkosur - Braziliya, Argentina, Paragvay, Urugvay.

6 Janubiy Afrika Tarakkiyot qo'mitasi (SADK) - Angola, Botswana, Lesoto, Malavi, Mozambik Mavrikiy, Namibiya, JAR, Svazilend, Tanzaniya, Zimbabve.

7 G'arbiy Afrika iqtisodiy va valyuta ittifoki(YUEMOA)- Kot-d'Ivuar, Burkina-Faso, Nigeriya, Togo, Senegal, Benin, Mali.

8 Janubiy Osiyo xududiy hamkorlik assotsiatsiyasi (SAARK)-Hindiston, Pokiston, Shri-Lanka, Bangladesh, Maldiv orollari, Butan, Nepal.

9 And pakti davlatlari Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, BoliviY.

Bunday bloklarning tuzilishiga siyosiy, iqtisodiy va tarixiy xarakterga ega bo'lgan obyektiv jaryonlar sabab bo'lgan edi. Bir tomondan bunday jarayonlarning kuchayishi xalqaro savdoni kuchaytirsa(iqtisodiy zona, blok va iqtisodiy xududlar miqiyosida), boshqa bir tarafdin esa har qanday yopik tuzilma uchun xos bo'lgan ba'zi bir to'siqlar yaratildi. Yagona, global savdo bazori yo'lida savdo-iqtisodiy guruhlarining bir-birlari bilan aloqasi natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ko'plab to'siq va qarama-qarshiliklar mavjud.

Xalqaro savdoni boshqarish, uning taraqqiyotiga bo'lgan to'siqlarni yo'q qilish va erkinlashtirishida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tashkilotlarning eng asosiylaridan biri Tariflar va savdo bosh bitimidir (GATT). 1947 yilda GATT tashkilotini tuzilishi haqidagi kelishuv 23 mamlakat tarafidan imzolandi va 1948 yilda kuchga kirdi. 1994 yilning 31 dekabrda GATT o'z faoliyatini tugatdi va uning o'rniga Jahon savdo tashkiloti (JST) barpo qilindi.

GATT – bu ko'p tomonlama xalqaro kelishuv bo'lib, u a'zo mamlakatlarning o'zaro savdosiga aloqador ko'pgina prinsiplar, huquqiy normalarni, shuningdek savdoni olib borish va davlat boshqaruviga oid qoidalarni uz ichiga oladi. Jahon iqtisodiyotida GATT eng yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan biri bo'lib, uning faoliyat doirasi dunyo savdosining 94-95%ni qamrab olgan GATTning huquqiy mexanizmi bir qator qonun-qoidalarga asoslangan:

- savdoda huquqiy buzilishni oldini olish uchun birinchidan, eksport, import va tranzit operatsiyalarni, ular bilan bog'liq bo'lgan boj va to'lovlar borasida eng qulay shart-sharoit yaratish, ikkinchidan, import va milliy mollar orasida ichki soliq va to'lovlar borasida, shuningdek ichki savdoni boshqaradigan qonun-qoidalar borasida teng huquqlikni ta'minlaydigan milliy tartiblar yaratiladi;

- eng qulay shart-sharoit, ya'ni kelishuvga kirishayotgan taraflar orasida ular tarafidan uchinchi davlatlarga berilayotgan(yoki berilajak) barcha imtiyoz va ustunliklardan foydalanish huquqini yaratish. Bu qoida tovarlarning olib kirilishi va olib chiqilishi, boj to'siq to'lovlari, ishlab chiqarish, dengizchilik yuridik va jismoniy shaxslarning huquqiy ahvoriga ta'alluqlidir;

- mililiiy bozorni himoya qilishda ko'proq tarif qurollaridan foydalanish, import va boshqa notarif cheklashlardan voz kechish;

- ko'p tomonlama muzoqaralar olib borish yo'li bilan boj tariflarini pasaytirilishi;

- rivojlanayotgan mamlakatlar bilan savdoda preferensialtizimni (imtiyoz berish) o'rnatish;

- savdo borasida paydo bo'lgan kelishmovchiliklarni muzoqaralar yo'li bilan hal qilish;

- bir-biriga savdo-siyosiy yon bosishda hamkorlik qilish.

GATTning faoliyati raundlarga birlashgan ko'p tomonlamali muzoqaralar yo'li bilan olib borilgan. GATT o'z faoliyatini boshlaganidan beri 8 raund o'tkazilgan bo'lib, buning natijasida o'rtacha boj miqdori o'n barobar kamaygan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda 40%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2000 -chi yillarning boshlarida ular taxminan 4%ni tashkil qilgan.

1996 yilning o'rtasida GATTga 130 mamlakat a'zo bo'lgan. Yuqorida aytib o'tkanimizdek, 1996 yilning yanvarida GATTning o'rnini Jahon savdo tashkiloti (JST) egalladi. Uni 81 mamlakat ta'sis etdi. JSTni tashkil topishiga 7 yillik -urugvay raundi muzoqaralari sabab bo'ldi. 2005 yilga kelib JSTga a'zo davlatlar soni 150 taga yetdi. Ushbu tashkilotga MDHga a'zo bo'lgan mamlakatlar - Qirg'iziston, Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya va Moldova davlatlari ham a'zo bo'lib kirgan. O'zbekiston Respublikasi esa 1994 yildan beri JSTda kuzatuvchi sifatida ishtirok etib kelmoqda. Hozirgi kunda ham JSTga a'zo bo'lish jarayonlari davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomicheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.

2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.

3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of corporate finance. McGraw-Hill, 2003.

4. Kumri Nomozova. Organizational and esonomis modeling of the system of interregional industrial sooperation as a sontrol object. Proseedings of the 7th International Sonferense on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of sesurity of esonomis and esologisal systems in the sountries of the sentral Asian Region. International Sonferense on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogisheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq risklarni sug‘urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomisheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug‘urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o ‘tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
11. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.
13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.
14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.
15. Publis Finanse: A Sontemporary Applisation of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning
16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.